



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 31 - iyul

VI-64-150-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumanida Jinoyatchilikni oldini olish va huquqbazarliklar profilaktikasini ta'minlash borasida Angor tumani IIB bo'limi boshlig'i S.Choriyevning 2023-yilning o'tgan 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlар yuzasidan hisoboti to'g'risida

Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarni barvaqt profilaktika qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlар organlarining eng quyi bo'g'inlaridan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va zamonaviy ish uslublarini joriy qilish orqali mamlakatimizda huquqtartibot va qonuniylikni mustahkamlash aholining tinchligi hamda osoyishtaligini ta'minlash maqsadida, muhtaram yurtboshimizning 2021-yilning 26-mart kunidagi «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlар organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196-sonli Farmoni imzolangan. Yuqorida gilarga ko'ra, shahar-tuman sektor rahbarlari, aniqlangan muammolarning yechimi bo'yicha choraklik «mahallabay» dasturlarini ishlab chiqib, hududiy kengashlarga kiritilishi va natijasi bo'yicha xalq vakillariga axborot berib borish tartibini yo'lga qo'yish kabi tartib yo'lga qo'yilgan. Xususan, mahallani xavfsiz, jinoyatdan holi hududga aylantirish maqsadida “Obod va xavfsiz hudud” tamoyili asosida huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati qayta ko'rib chiqildi.

2023-yilning 6-oyligida “Jinoyatchilikni oldini olish va huquqbazarliklar profilaktikasi” sohasidagi ishlarni tahlil qilarkanmiz, shuni alohida qayd etish lozimki, o'tgan 6 oy yakuniga ko'ra sodir etilgan jinoyatlarni 2022-yilning mos davriga nisbatan solishtiradigan bo'lsak, umumiy jinoyatchilik ko'rsatkichi avvalgi yilga nisbatan biroz o'sgan bo'lsa-da, jinoyatchilikning o'ta og'ir va ayrim turlarini sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi yoki kamayishiga erishildi.

Jumladan, qotillik, bosqinchilik, talonchilik, tovlamachilik, mulkni qasddan nobud qilish, og'ir tan jarohati yetkazish, voyaga yetmaganlarni jinoyatga jalb qilish jinoyatlari sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, og'ir tan jarohati yetkazish, tovlamachilik, bezorilik, o'lim bilan bog'liq yo'l transport hodisalari o'tgan yilga nisbatan kamayishiga erishildi.

Biroq, shu bilan birga bugungi kunda jinoyatchilikni jilovlash va oldini olishda eng og‘riqli nuqtasi bo‘lgan firibgarlik, o‘g‘irlilik, qasddan badanga yengil va o‘rtacha shikast yetkazish, iqtisodiy turdagji jinoyatlari oshib ketishiga yo‘l qo‘yildi. Tumanning 36 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarining 28 tasida yoki 77,7 foiz mahallalarda jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, sodir etilgan jinoyatlar mahallalar kesimida tahlil qilinganida,

- 8 ta yoki 22,2 foiz mahallalarda tenglashgan
- 7 ta yoki 19,4 foiz mahallalarda kamaygan
- 8 ta yoki 22,2 foiz mahallalarda umuman jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmagan bir paytda
- 16 ta yoki 44,4 foiz mahallalarda umumiylar jinoyatchilik o‘tgan yilning mos davriga nisbatan oshib ketishiga yo‘l qo‘yilgan.

Ushbu jinoyatchilik salmog‘i o‘sgan mahallalar «Xomkon» mahallasi (0-2) 2 taga, «Gilambob» mahallasi (1-3) 2 taga, «Xo‘janqo» mahallasi (0-3) 3 taga, «Gulzor» mahallasi (0-2) 2 taga, «Karvon» mahallasi (1-3) 2 taga, «Kattaqum» mahallasi (1-3) 2 taga, «Novshahar» mahallasi (2-3) 1 taga, «Kayran» mahallasi (0-1) 1 taga, «Markaz» mahallasi (0-1) 1 taga, «Ilg‘or» mahallasi (0-2) 2 taga, «Yangi turmush» mahallasi (10-13) 3 taga, «Qorabog‘» mahallasi (1-4) 3 taga, «Farovon» mahallasi (1-2) 1 taga, «Navro‘z» mahallasi (10-11) 1 taga, «O‘zbekiston» mahallasi (10-12) 2 taga va «Navbahor» mahallasi (2-5) 2 taga o‘sish hisobiga to‘g‘ri kelsa, tumanning «Yuqori Tallimaron», «To‘lqin», «Zang gilambob», «Do‘stlik», «Qadimiy Angor», «Madaniyat», «Bahor» va «Yangixayot», mahallarida umuman jinoyatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

O‘tgan 2023-yilning 6 oy davomida tuman hududida “Xavfsiz xonodon” va “Xavfsiz hovli” tizimini yo‘lga qo‘yish hamda sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni “mahallabay” jilovlash borasida olib borilayotgan keng qamrovli profilaktik tadbirlar davomida tizimda bir qator samarali ko‘rsatkichlarga ham erishildi.

Misol uchun, bugungi kunda jinoyatchilikni sodir etilishini shaxslar kesimida tahlil qilinganda:

- muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan 22 tadan 8 taga yoki -63,6 foizga;*
- guruqlar tomonidan 14 tadan 9 taga yoki -35,7 foizga;*
- ayollar tomonidan 18 tadan 14 taga yoki -22,2 foizga;*
- mast holda 2 tadan 0 ga yoki 100 foizga;*
- ishlamaydigan o‘qimaydigan tomonidan 37 tadan 18 taga yoki -51,4 foizga*

kamayishiga erishildi. Bu esa o‘z navbatida Ichki ishlar xodimlari va ularga ko‘mak berayotgan barcha boshqa soha idoralari (vakillari)ning ham mehnati samarasidir.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan tumanda olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida II chorak yakuni bilan tumanda noaniq sharoitda sodir etilgan 25 ta jinoyatlardan 23 tasini fosh etilishiga erishildi (*JPK 364-m 1/1 2ta, 364-m 1/2 1 ta*).

Shuningdek, qidiruvda bo‘lgan shaxslarni yashirin manzillarini aniqlash va ularni qo‘lga olish borasida 15 nafari ushlanishiga erishilgan bo‘lsa, ularning 14 nafarini mahalliy qidiruvdagi shaxslar 1 nafarini diniy ekstremistik oqim a’zosi tashkil etadi. Aniqlanadigan jinoyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha IIBning o‘z tashabbusi bilan 1 ta ekstremizm bilan bog‘liq jinoyat, 2 ta qo‘shmachilik jinoyatlari aniqlanishiga erishildi.

Bugungi kunda JKning 48 ta moddasi bo‘yicha mavjud 36 ta mahallalardan 47,2 foizi yoki 17 tasida jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmaganligi sababli “yashil” toifaga, 33,3 foizi yoki 12 tasida jinoyatlar avvalgi yillarga nisbatan o‘smaganligi sababli “sariq” toifaga va 19,4 foizi yoki 7 tasida jinoyatlar oshib ketishiga yo‘l qo‘yanligi sababli “qizil” toifaga ajratildi.

Shuning uchun, “Kriminogen vaziyat og‘ir bo‘lgan mahallalarda jinoyatlarni jilovlashning yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi Qo‘shma qaror asosida tuman hududidagi kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan 4 ta mahalla (*Yangiturmush, Navro‘z, O‘zbekiston va Sharq guli*) tanlab olinib, ushbu mahallalarda, jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish, jinoyatlarni jilovlashni yangi tizimi “Namunali mahalla”ga aylantirish borasida profilaktik chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Shuningdek, qolgan mahallalarda xavfsiz muhitning barqarorligini saqlash maqsadida, ularda maxsus profilaktik ishlarni olib borish borasida profilaktika inspektorlarining mahalla faollari, tegishli idora va tashkilotlar xodimlari bilan uzviy hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Shu sababli kelgusida kriminogen og‘ir mahallada jinoyatlarni jilovlash maqsadida Milliy gvardiya bilan hamkorlikda ishlarni tizimli davom ettiramiz.

“Jinoyat kamayishiga erishilmagan” 16 ta mahallalarda manzilli uyma-uy yurib, profilaktik hisobda turgan shaxslar, notinch oilalar va uyushmagan yoshlarni tizimli profilaktik ishlar olib boramiz.

“Jinoyat sodir etilmagan” 4 ta mahallada xavfsiz muhitni barqarorligini saqlash maqsadida, ularda maxsus profilaktik ishlarni kuchaytirish, aholi, ayniqsa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jinoyat sodir qilgan shaxsga jazo muqarrarlik prinsipi mavjudligi borasidagi ishlarni jadallashtiramiz. Keyingi muhim masalalardan yana biri, ayrim turdagи jinoyatlar umumiy jinoyatlarning salmoqli qismini tashkil etmoqda. Misol uchun, 2023 yilning 6 oyida jami sodir etilgan jinoyatlarning 22,5 foizini firibgarlik, 13,9 foizini o‘g‘rilik, 7,5 foizini bezorilik jinoyatlari tashkil etadi.

Angor tumanida Jinoyatchilikni oldini olish va huquqbazarliklar profilaktikasini ta'minlash borasida Angor tumani IIB bo'limi boshlig'i S.Choriyevning 2023-yilning o'tgan 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotini muhokama qilib, bildirilgan fikr va mulohazalarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumanida Jinoyatchilikni oldini olish va huquqbazarliklar profilaktikasini ta'minlash borasida Angor tumani IIB bo'limi boshlig'i S.Choriyevning 2023-yilning o'tgan 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bergan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i (S.Choriyev)ga:

- Tumanda huquqbazarliklar va jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini chuqur tahlil qilib, aniqlash va shu asosida ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan zarur choralar ko'rish hamda joylarda qonuniylikni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish;

- tezkor-qidiruv faoliyati, shaxslarni profilaktik hisobga olish, ular bilan ishslash borasida yo'l qo'yilgan jiddiy kamchiliklar bo'yicha profilaktika inspektorlarining hisobotini eshitish amaliyotini to'g'ri yo'lga qo'yish;

- jinoyatlar kelgusida takrorlanishining oldini olishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilash;

- jinoyatga qarshi kurashish adolatini ta'minlash orqali jinoyat sodir etgan aybdor shaxslarni aniqlab, ularga nisbatan qonun ustuvorligi va jazo muqarrarligi asosida qat'iy choralar ko'rish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo'limi (S.Choriyev), mahalla fuqarolar yig'inlari raislari bilan birgalikda:

- huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'rileyotgan chora tadbirlar haqida fuqarolar yig'inlarida jadval asosida ichki ishlar bo'limi profilaktika inspektorlarining hisobotlarini eshitib borish;

- ichki ishlar organida hisobda turgan, ayniqsa ilgari sudlangan, oilada va turmushda muntazam ravishda huquqbazarlik sodir etuvchi shaxslar bilan profilaktik ishlarni olib borish, ularning xulq-atvori va turmush tarzini fuqarolar yig'inlarida muhokama qilish;

- oilaviy, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni o'rtasida avval ham huquqbazarlik sodir etilgan yoki etilmaganini, ular o'rtasida oldin ham adovat yoki ziddiyat mavjud yoki

mavjud emasligini o‘rganib chiqish va munosabatlarni psixologik tahlil qilish;

ijtimoiy ahamiyati muhim bo‘lgan, ayniqsa ota-onalar farzand tarbiyasi va ta’limi borasidagi majburiyatini bajarmasligi natijasida voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan huquqbuzarlik, jinoyatlar sodir etilishi sababini o‘rganib, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish hamda ota-onalarga nisbatan qonuniy choralarni qo‘llash bo‘yicha zaruriy choralar ko‘rish;

- “ommaviy madaniyat” niqobi ostida mamlakatimizga kirib kelishi mumkin bo‘lgan axloqiy buzuq va zo‘ravonlik g‘oyalarini tarqatuvchi xatarli tahdidlarga qarshi kurashish ishlarini yanada kuchaytirish vazifalari topshirilsin.

4. Tuman hokimi o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Sh.Rajabova, O‘zbekiston yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi Sh.Qaxxorov bilan birgalikda:

- jinoyatning tub sabablari va uni keltirib chiqargan barcha shart-sharoitlarni o‘rganib, jinoyat qayta sodir etilmasligi uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsinlar, aybdor shaxslar aniqlanib, ularga nisbatan qonun ustuvorligi va jazo muqarrarligi tamoyillari asosida qat’iy choralar ko‘rilishi yuzasidan tushuntirish targ‘ibot ishlarini olib borish;

- sodir etilgan huquqbuzarlik va jinoyatchilikni tahlil qilib, huquqbuzarliklar va ularni sodir etishga moyil shaxslar hisobini yuritib borish, aholiga, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarga psixologik yordam ko‘rsatish;

farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanmaydigan ota-onalarni aniqlab, ular bilan tarbiyaviy psicho-profilaktik suhbatlarni tashkil etish;

- ilgari sudlangan shaxslarning turmush tarzini o‘rganib, ular tomonidan oila a’zolariga tazyiq o‘tkazish holatlari mavjudligiga aniqlik kiritib borish hamda kelgusida ular tomonidan qayta huquqbuzarlik sodir etilmasligi uchun jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

- oilada milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan axloq-odob doirasida nojo‘ya xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yayotgan shaxslarni aniqlab, ularga nisbatan ta’sir choralarini belgilash vazifalari topshirilsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan har chorak yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma hisobot kiritib borilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining

Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish va axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash bo'yicha doimiy komissiyasi raislari (Y.Xalimov, Q.Ergashev) zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov